

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

## **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**3-son (mart 2025)**

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal  
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

**Urganch – 2025**

Aksiologik assimetriya, ikkala tilda ham yorqin tusli ranglar bilan bog‘liq bo‘lib, masalan, oq, ko‘k va h.k., bu assimetriya ezhgulik, poklik va umid qadriyatlarini aks ettiruvchi ijobiy ma’noga ega hisoblanadi.

To‘q rangli tuslar (qora) ko‘proq salbiy o‘xshashliklar bilan bog‘liq bo‘lib, qiyinchiliklarni, qorong‘ilikni, yovuzlikni timsollashtiradi.

Ingliz madaniyatida qizil rang ko‘proq neytral va ko‘p qirrali rang sifatida qabul qilingan bo‘lsa, qoraqalpoq madaniyatida esa salbiy ma’noga ega (“**ántek**”, uyatsiz).

Diniy va madaniy omillarning ta’siri qoraqalpoq madaniyatida rang belgilari orqali ham aks etadi, bu ko‘proq diniy va falsafiy g‘oyalar bilan bog‘liq. Masalan, “oq” faqat poklik ramzi, balki ezu tilaklarni ham qo‘llaydi (“aq jol”). Ingliz madaniyatida rangli frazeologik birliklar tarixiy yoki kundalik voqelik bilan bog‘lanadi (“red tape” – hujjatlardagi qizil lenta bilan assotsiatsiyasi sifatida).

Rang belgilariga ega frazeologik birliklarning ma’nosи ko‘pincha kontekst bilan belgilanadi. Masalan: “**White lie**” (ingliz) yaxshi niyatli kishi yolg‘on gapirsа, “aq jurek” (qoraqalpoq) oq ko‘ngil pák kónil hám miyir timsali bolip tabildi. “**Black list**” (ingliz) salbiy ma’no (qora ro‘yxat), “qara kún” (qoraqalpoq) esa qayg‘uli voqeа bilan bog‘liq.

**Xulosa.** Binar aksiologik tahlil ingliz va qoraqalpoq tillarining rang komponentli frazeologik birliklari umumi-soniy va madaniy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarni aks ettirishini ko‘rsatadi. Asosiy farqlar rangni madaniy qadriyatlar, tarixiy an‘analar va mafkuraviy munosabatlar prizmasi orqali verballashtirishga taalluqlidir.

Rangli frazeologik birliklarning binaraksiologik tahlili ingliz va qoraqalpoq tillarining baholash semantikasidagi madaniy o‘ziga xosliklar va farqlarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Bunday tahlil nafaqat til hodisalarini nazariy o‘rganish, balki globalashuv va tillararo o‘zaro ta’sir sharoitida, ayniqsa, zarur bo‘lgan madaniyatlararo aloqada amaliy qo‘llash uchun ham foydali bo‘lishi mumkin.

Frazeologik birliklardagi ranglar nafaqat umuminsoniy qadriyatlarni, balki har bir madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi. Tahlil orqali rang semantikasi madaniy kontekst va o‘ziga xos lingistik birikmalarga qarab ham ijobiy, ham salbiy ma’no kasb etishini ko‘rsatish mumkin. Madaniy tafovutlarni chuqurroq anglash har bir tilning boyligi va o‘ziga xosligini ochib berishga yordam beradi.

#### **Foydalanaligа adabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). Арутюнова Н.Д. Аксиология в механизмах жизни и языка. Проблемы структурной лингвистики 1982, М., “Наука”, 1984, с. 5 – 23.
- (2). Бабаева Я.В. Лингвокультурологические характеристики русской и немецкой аксиологических картин мира. Дис. ... док.филолог.наук, Волгоград, 2004, с. 438.
- (3). Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспект.
- (4). Болдырев Х.Х. Исследование оценочных смыслов в контексте познавательных процессов. Язык. Текст. Дискурс. Научный альманах. Вып. 8, Ставрополь, 2010, с. 25 – 37.
- (5). Karasik V.I. Yazikovoy krug: lichnost, konsepti, diskurs. Volgograd: Peremena, 2002, с. 477.
- (6). Rokeach M. Beliefs, attitudes and values. A theory of organization and change. San Francisco, Washington, London: Jossey-Bass Inc. Publishers, 1968, p. 214.
- (7). Ammer S. Dictionary of Idioms. Boston New York, Houghton Mifflin Company, 1997, p. 473.
- (8). Cambridge Idioms Dictionary. 2nd Edition. Cambridge University Press, 2006.
- (9). Cambridge International Dictionary of Idioms. URL:<http://dictionaries.cambridge.org> (data obrashe-niya: 23.05.2024).
- (10). Collins COBUILD Dictionary of Idioms. London, Harper Collins Publishers Ltd., 1997, p. 193.
- (11). URL:<http://colorrnind.narod.ru/index.htm> (data obrasheniya: 22.03.2025).

**Ashirbaeva Dilorom Ravshanovna (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, Koreyashunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD; [hangoook2019@gmail.com](mailto:hangoook2019@gmail.com))**

#### **KOREYS VA O‘ZBEK OILA DISKURSIDA MUROJAAT BIRLIKLARINING GENDER XUSUSIYATI**

**Annotatsiya.** Koreys va o‘zbek tillari bir oilaga mansub til hisoblanadi. Shunday ekan, har ikkala tilda jumlalar tuzilishi va murojaatlarda o‘xshash jihatlarni ko‘plab o‘rganish va talqin qilish mumkin. Mazkur maqolada koreys va o‘zbek oilasida erkak va ayollarga nishbatan qo‘llaniluvchi murojaatlar ko‘rib chiqiladi va tahvilga tortiladi. Jumladan, murojaatlarning o‘xshash va farqli tomonlari, tarjimada berilishi misollar yordamida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ota-ona, aka, ona, kelin, ayolim, turmush o‘rtog‘im, xotin, uy bekasi, buvi, opa.

**Аширбаева Дилором Равшановна (Ташкентский государственный университет востоковедения,**

**доцент Высшей школы Корееведения, PhD; [hangook2019@gmail.com](mailto:hangook2019@gmail.com))**

## **ГЕНДЕРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЕДИНИЦ ОБРАЩЕНИЙ В КОРЕЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ СЕМЕЙНОМ ДИСКУРСЕ**

**Аннотация.** Корейский и узбекский языки принадлежат к одной языковой семье. Таким образом, можно изучить и интерпретировать множество сходств в структуре предложений и упоминаниях на обоих языках. В данной статье рассматриваются и анализируются обращения, используемые в корейских и узбекских семьях в отношении мужчин и женщин. В частности, на примерах поясняются сходства и различия обращений, перевода.

**Ключевые слова:** родители, брат, мать, невестка, жена, муж, жена, домохозяйка, бабушка, сестра.

**Ashirbaeva Dilorom Ravshanovna (Tashkent State University of Oriental Studies, Associate Professor of the Higher School of Korean Studies, PhD; [hangook2019@gmail.com\)](mailto:hangook2019@gmail.com)**

## **GENDER CHARACTERISTICS OF UNITS OF ADDRESS IN KOREAN AND UZBEK FAMILY DISCOURSE**

**Annotation.** Korean and Uzbek languages belong to the same language family. In this way, many similarities in sentence structure and references in both languages can be explored and interpreted. This article discusses and analyzes the appeals used in Korean and Uzbek families in relation to men and women. In particular, examples explain the similarities and differences of appeals and translation.

**Key words:** parents, brother, mother, daughter-in-law, wife, husband, wife, housewife, grandmother, sister.

**Kirish.** Til o‘rganish, bir qarashda, oddiydek tuyulsada, koreys millatining pog‘onali munosabatida til me‘yorlari, nutq etiketi hamda murojaatlar alohida o‘rin egallaydi. Mazkur maqolada nutq etiketining ajralmas qismi hisoblangan murojaatlar yoritiladi. Murojaatlar juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, maqolada faqatgina oila diskursida qo‘llaniluvchi asosiy murojaat birliklariga to‘xtalishni lozim deb topdik.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Mazkur maqolani yoritishda N.Sh.Ahmedovaning “O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik konnotativ tadqiqi” mavzuidagi dissertatsiya ishidan, G.O.Kimning “Категории обращения в речевом этикете в корейском языке” hamda Sh.R.Usmanovaning “Koreys va turkiy tillarda undalmalar” va 이 무영 ning 예절바른 우리 말 호칭 (nutqiy etiket qoidalariga amal qiluvchi murojaatlar) nomli maqolasidan foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yoritishda tavsiflash, qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Qarindoshchilik umumiy ajdoddan kelib chiqganligi yoki turmush qurish orqali yuzaga kelgan ijtimoiy guruh va rolini tashkil qilish orqali individlar orasidagi aloqadir. Qarindoshlik terminlari qadim davrlardan boshlab nutq jarayonida bir kishining ikkinchi kishiga murojaati yoki uchinchi kishini anglatish uchun ishlataladi. Shunday ekan, qarindoshlik munosabati bilan bog‘liq murojaat birliklari orqali ifodalangan munosabatlar markazida so‘zlovchi turadi, bunda so‘zlovchi qarindoshlik termini bilan yoki unga tinglovchining ismini qo‘sghan holda murojaat qiladi [1;131-b.].

Koreys oilasidagi munosabatlar g‘oyatda murakkab bo‘lib, “mendan katta-kichik” shartiga qat’iyan amal qilinadi. Kattalarga har doim “sizlab” gapiriladi. Bir qarashda, oson bo‘lib tuyulgan murojaat shaklli, aslida, birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Xususan, koreys tilidagi pog‘onali munosabatlar kishining diqqatini talab etadi.

Koreys tilida otaga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat so‘zlarini uch guruhga ajratish mumkin: o‘z otasiga 아버지 aboji dada, o‘zgalarning otasiga 아버님 abonim dada, amaki va marhum ota 선친 sonchin haqidagi murojaat birliklari. O‘zbek muloqot madaniyatida marhumlarga nisbatan maxsus murojaat shakllari mavjud emas. Biroq marhumlar yodga olinganda, ularning ismlari oldidan “rahmatlik” so‘zi ishlataladi.

Otasi tug‘ishgan ekanligini bildirish maqsadida 친 chin “yaqin/qondosh” so‘zi qo‘silib aytiladi. 친 아빠 [chin appa] qondosh otam. Mazkur murojaatlarning xitoy tilidan o‘zlashgan xurmat shakli 부친 [pu-chin] dir.

Er-xotin munosabatlarida xitob so‘zlarining xilma-xilligi jihatidan koreys tili dunyoda eng boy til hisoblanadi. Er-xotinlar (40%), ko‘pincha, bir-biriga 여보 [yobo] azizim yoki 자기[jagi] deb murojaat qilishi shadi:

여보, 내 말 잡 들어봐요. “**Azizim**, gapimga qulog soling” [5].

Ayol o‘z eriga nisbatan murojaati yoshini hisobga olib, turlicha bo‘lishi mumkin. Yangi turmush qurilgan vaqtida 여보 [yobo] deb murojaat qilish mumkin. Ammo yoshi ulug‘lashgani sari여 보 [yobo]ning o‘rniga 옹감 [yongam] deya murojaat qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Oilada farzand tug‘ilgach, er-xotin munosabatlari o‘zgacha tus oladi. Jumladan, koreys tilida ayoli eriga (farzandning ismi+아빠) 수미의 아빠 [Sumie appa], *Sumining otasi*, yoki 애기 아빠 [egi appa] *bo-lamning otasi* deb murojaat qiladi [6;170-b.]. Ba’zi o‘zbek oilalarida ayol eriga katta o‘g‘lining ismi bilan murojaat qiladi. Eriga *otasi*, *dadasi*, *adasi* kabi undalmalar vositasida murojaat qiladigan kishilar ham bor:

*To‘g‘ri, dadasi, men aytaman.*

Kelinlar qaynatasi haqida ota uyidagilariga yoki boshqa kishilarga so‘zlayotganida 시아버지 [shia-boji] deb gapiradi.

Koreys oilsida aka va opalarni ismi bilan chaqirish qat’iyan man qilingan. Kezi kelganda, koreys diskursining o‘ziga xos gender tafovutlarini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Koreys ayollarining nutqida “aka” 오빠 [oppa], erkaklarining nutqida esa “aka” 형 [hyong] ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Qizlarning nutqida o‘ta faol bo‘lgan qarindoshlik oti bo‘lmish 오빠 [oppa] “aka” turli holatlarda murojaat vazifasini o‘taydi. Jumladan, ular o‘zidan katta yigitlarni, unashirilgan yigitlarni hamda o‘zidan yuqori sinfda yoki kursda o‘qiydigan bolalarni 오빠 [oppa] deb chaqirishadi. Koreys erkaklarining nutqida 형 [hyong] “aka” murojaatini jinoiy guruh yetakchisiga nisbatan ham qo‘llaniladi. Tarjima jarayonida bunday holatlar biroz murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Pog‘onali munosabatlarda samimiyatni ifodalaydigan va “aka” ma’nosini beradigan murojaat birliklaridan yana biri erkaklarning nutqiga xos bo‘lgan 형dir. 형 undalmasi akaga, qaynag‘aga, o‘zidan kattalarga, yuqori sinfda yoki kursda o‘qiydiganlarga nisbatan ishlatiladi [4;163-b.].

형, 한까지 부탁이 있는데 들어겠어? “*Aka, bir iltimosim bor edi, aytaveraymi?*”

Oilada buvalarning ham nomlanishi bo‘lib, ularning ota tomondan va ona tomondan ekanligiga qarab turlicha nomlanadi. Ota tomondan buva – 할아버지 [haraboji] deb murojaat qilinsa, ona tomondan esa 외할아버지 [wiharaboji] deb murojaat qilinadi. O‘zbek tilida esa buvalarni bobo, buva, katta dada, opoq doda deya murojaat etiladi. Koreys nutqida ota yoki ona tomondan bobolarga murojaat qilinuvchi birliklari mavjud bo‘lgani uchun nutq jarayonida bobo tinglovchiga tushunarli bo‘lishi uchun kim tomondan ekanligiga alohida urg‘u berib aytildi.

Buviga 할머니 [halmoni], onaga 어머니 [omoni] deb murojaat qilinadi. Hozirgi kunda shahar va shahar atrofi shevalarida farzandlarning buviga nisbatan 할미 [halmi], onaga 엄마 omma singari neytral murojaat shakllarining qo‘llanishi keng tarqalib bormoqda:

엄마, 학교에 다녀 왔습니다. “*Oyi, maktabdan keldim*”.

Koreys tilida onaga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat so‘zlarini uch guruhga ajratish mumkin: o‘z onasiga, o‘zgalarining onasiga va marhum ona haqidagi murojaat birliklariga. Onasiga 어머니 [omoni] *oyi* deb murojaat qilinadi. Ushbu murojaatlarning muqobil varianti 어머님 [omonim] shakli esa turmush o‘rtog‘ining onasiga, shuningdek, yaqin do‘stining onasiga nisbatan ishlatish mumkin. Qadimgi koreys tilida marhum ona haqida 선비 [sonbi] deb xitob qilingan. O‘zbek muloqot madaniyatida marhumlarga nisbatan maxsus murojaat shakllari mavjud emas. Biroq marhumlar yodga olinganda, ularning ismlari oldidan “rahmatlik” so‘zi ishlatiladi.

어머님 [omonim] so‘zi o‘zgalar oldida onalarini hurmat qilib gapirayotganda qo‘llaniladi. Bu o‘zbek tilida *onamlar* deb muojaat qilishga tengdir. 엄마 [omma] (*oyijon*) deb yosh bolalar onalariga murojaat qilishadi. Onasi tug‘ishgan ekanligini bildirish maqsadida 친 [chin] “yaqin/qondosh” so‘zi qo‘shilib aytildi. 친 엄마 [chin omma] *qondosh onam*. Mazkur murojaatlarning xitoy tilidan o‘zlashgan hurmat shakli 모친 [mochin]dir.

Oila jamiyatning eng kichik bo‘g‘ini bo‘lsa ham, er va xotin oilaning asosidir. Quyida erkak kishining ayoliga nisbatan bir necha ko‘rinishdagi murojaatlarini tahvilga tortamiz.

여보 Azizam.

Er-xotin munosabatlarida xitob so‘zlarining xilma-xilligi jihatidan koreys tili dunyoda eng boy til hisoblanadi. Er-xotinlar (40%), ko‘pincha, bir-biriga 여보 [yobo] (azizim) yoki 자기 [chagi] (azizim) deb murojaat qilishadi [3]: 여보, 내 말 좀 들어 봐요. “*Azizam, gapimga qulog sol*”.

Oila qurgandan so‘ng, turmush o‘rtoqlar o‘zaro 여보 [yobo], deb murojaat qiladilar. Sharqona tarbiyaning o‘ta kuchliligi murojaat shakllarida ham namoyon bo‘ladi. Koreyada ham turkiy xalqlar singari, turmush o‘rtoqlar bir-birlarini ismlari bilan chaqirishlari uyat hisoblangan. Ammo, qanday bo‘lmisin, chaqirish va murojaat qilish kerak bo‘lgan. Shunda turmush o‘rtoqlar bir-birlarini 여보 [yobo], ya’ni, o‘zbek tiliga tarjima qilinganida, “azizim, azizam” deya murojaat qiladilar. Ushbu murojaatning kelib chiqish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, qadimda ushbu murojaat ikki so‘zdan, ya’ni, 여기에 보세요 [yogie poseyo] murojaatidan kelib chiqqan bo‘lib, tarjimasi “bu yerga qarab yuboring”dir. Vaqt o‘tgani sari ushbu murojaat to‘laligicha aytildasdan bugungi kunda hammaga ma’lum shakldagi 여보 [yobo]ga qisqargan.

Ushbu murojaat bilan birgalikda 자기(으) [chagi(ya)] murojaati ham keng qo‘llaniladi. Ammo 여보 [yobo]dan farqli jihat shundaki, bu murojaatni turmush qurmagan juftliklar o‘zaro qo‘llashlari mumkin.

**부인 Ayolim.** Erkak kishi ayolini chaqirayotganida 부인 [puin] deb murojaat qiladi. Koreyslar o‘z ayollari haqida suhbatdoshiga so‘zlayotganida yoki uchinchi shaxs sifatida gapirganida, ko‘p hollarda, 부인 [puin], ya’ni *ayolim* deb aytadilar. Ammo ayoliga qarata xitob qilinganida, ayolim deb emas, balki erkalash ma’nosida qo‘llaniluvchi *xotinjon* yoki *onasi* deb tarjima qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

부인 내 양말 어디 있어? **Xotinjon (onasi)**, mening paypog‘im qayerda?

Ushbu murojaat ayoliga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan hurmatni bildiruvchi murojaat hisoblanib, nisbatan quyi bo‘lgan murojaat ham mavjud, u 집 사람 [chip saram]dir [6;153-b.]

O‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinganida, *uy odami* deya tarjima qilinadi. Jumlalarda kelganida *uy odami* deb emas, balki *uy bekasi* deya tarjima qilingani maqsadga muvofiqdir. Ammo o‘zbek tilida *uy bekasi* quyi murojaat birligi sanalmaydi.

그는 집사람에게도 말 못 할 사정이 생겼다. U *uy bekasiga* ham so‘zlay olmaydigan vaziyat yuzaga kelgandi.

Bugungi globallashuv jarayonlari har sohaga jadallik bilan kirib borayotgan bir paytda, murojaat birliklari ham ushbu ta’sirdan chetda qolmadidi. Koreys tili leksik qatlaming 70% kelib chiqishi xitoy ierogliflariga borib taqaluvchi so‘zlar bo‘lib, bugungi kunda ushbu qatlama ingliz tilidan kirib kelayotgan o‘zlashmalar bilan yanada boyimoqda. Hozirgi kunda 와이프 [waipheu] murojaati ham keng tarqalgan bo‘lib, ushbu murojaat inliz tilidagi wife, ya’ni *ayol, ayolim* so‘zidir.

아내의 “영감” **Ayol uchun “yongam”**.

Yangi turmush qurgan vaqtida erkak kishi ayoliga nisbatan 여보 [yobo] deb murojaat qilish mumkin. Ammo turmush o‘rtoqlarning yoshi ulug‘lashgani sari muhabbatga to‘la bo‘lgan ma’noni beruvchi 마누라 [manura] murojaati ko‘proq qo‘llanidi. O‘zbek tiliga *onajonisi* deb tarjima qilishimiz mumkin.

마누라, 이 이들은 어디 갔어? **Onajonisi**, bolalar qayergadir ketishdimi?

Har ikki tilda ham turmush o‘rtoqlar orasidagi munosabatlarda murojaat birliklari yoshiba nisbatan o‘zgarishini misollar orqali ko‘rish mumkin.

Oilada farzand tug‘ilgach er-xotin munosabatlari o‘zgacha tus oladi. Ularning bir-biriga bo‘lgan hurmati ortadi. Bu hurmat katta farzandning ismini qo‘sib murojaat qilish orqali amalga oshiriladi. Jumladan, koreys tilida erkak kishi ayoliga (farzandning ismi+엄마) 수미의 엄마 [Sumie omma] Sumining onasi, yoki 애기 엄마 [ egi omma] “bolamning onasi” deb murojaat qilinadi. Ba’zi o‘zbek oilalarida erkak ayoliga katta qizining ismi bilan, ayol esa turmush o‘rtog‘iga katta o‘g‘lining ismi bilan murojaat qilish hollari kuzatiladi. Ayoliga onasi, oyisi, ayasi, ayolining ismi bilan, xotin kabi undalmalar vositasida murojaat qiladigan kishilar ham bor:

Hoy *onasi*, suyunchini cho‘z [4;74–77-b.]

Qadimgi turkiy xalqlarda kishilarning ismiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish shaxsning o‘ziga nisbatan ham hurmat-ehtirom belgisi sifatida qabul qilingan. Bunday hurmat izhor qilishning asosiy yo‘li esa kishi ismini aytib chaqirmslikdir. Shunga ko‘ra, turkiy xalqlarning ko‘pchiligidida yoshlar o‘zidan kattalarning, er-xotinlar bir-birining ismini aytish mumkin emasligi haqidagi rasm-rusumlar paydo bo‘lgan [2;25-b.]. Yoshlar kattalarga qarindoshlik terminlari bilan, er-xotinlar esa bir-biriga farzandlarining ismi yoki onasi, otasi kabi so‘zlar bilan murojaat qilgan.

Kelinlar qaynana haqida ota uyidagilariga yoki boshqa kishilarga so‘zlayotganida 시어머니 [shionmoni] deb gapiriladi. Shu bilan bir qatorda, ‘저의’ [choe] yoki ‘나의’ [nae] *mening kabi o‘zlik olmoshi 시어머니* [shionmoni], ya’ni qaynona so‘zidan oldin qo‘sib gapiriladi. Agar kelinning suhbatdoshi qayna-

naga nisbatan yoshroq bo‘lsa, unda 시 어머니 [shiomoni] murojaatidan keyin –님 –nim, ya ‘ni –jon affaksi albatta qo‘shilishi lozim hisoblanib, 시 어머님 shiomonim tarzida gapirishni taqozo etadi.

Agar kelin farzandlik bo‘lsa, qaynanasi haqida farzandining ismini aytib, keyin ...ning buvasi yoki ...ning buvisi deb so‘zlaydi.

Umuman, -님 va -jon affiksli murojaat birliklari koreys va o‘zbek muomala madaniyatining eng go‘-zal va nozik qirralarini ko‘rsatuvchi milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Koreys oilasida aka va opalarni ismi bilan chaqirish qat’yan man qilingan. Kezi kelganda, koreys diskursining o‘ziga xos gender tafovutlarini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Koreys ayollari ning nutqida 오빠 [oppa] “aka”, 언니 [onni] “opa”, koreys erkaklarining nutqida 형 [hyong] “aka”, 누나 [nuna] “opa” singari murojaat shakllari farqlanadi. 언니 [onni] “opa” ko‘rinishidagi murojaat shakllarini kafe va restoranlarda ham uchratish mumkin.

Oilada buvi ota tomonidan va ona tomonidan ekanligiga qarab, turlicha nomlanadi. Ota tomonidan buvi – 할머니 [halmoni] deb murojaat qilinsa, ona tomonidan buvi – 외 할머니 [wihalmoni] deb murojaat qilinadi. O‘zbek tilida esa buvilarga momo, buvi, katta oyи deb murojaat etiladi. Koreys nutqida ota yoki ona tomonidan buvilarga murojaat qilinuvchi birliklar mavjud bo‘lgani uchun ham tarjima jarayonida buvi kim tomonidan ekanligi tinglovchiga tushunarli bo‘lishi uchun alohida urg‘u berib tarjima qilinadi.

Shu bilan bir qatorda, 할머니 halmoni so‘zini qarindosh bo‘lmagan, lekin yoshi ulug‘ kimsalarga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Buvilar nabiralariga o‘zlarini 할미 [halmi] ya’ni, buving deb aytadilar. Masalan: 할미가 네게 사탕을 가져왔다. **Buving** senga shirinlik olib keldi.

Mazkur jumlada “buving” so‘zi 할머니 [halmoni] deb emas, balki 할미 [halmi] tarzida berilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, qarindoshlik terminlari murojaat birligi bo‘lib keladigan eng faol so‘zlardir. Nutqda ular so‘zlovchi tomonidan tinglovchining yoshi, jinsi, qarindoshlik belgilari asosida tanlanadi. Koreys oilasida ham ayollarga, xuddi o‘zbek tili kabi, uzoq tarixga ega bo‘lgan milliy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan murojaat shakllarini kuzatish mumkin. Har ikkala tilda ham ba’zan notanish kishilarga nisbatan ham qarindoshlikni ifodalovchi so‘zlar murojaatda qo‘llaniladi. Bunda, asosan, tinglovchining yoshi va jinsi inobatga olinadi. Koreys diskursining gender tafovutlari qarindoshlik terminlari bilan ifodalangan murojaat birliklarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarjima jarayonida koreys tilida bir so‘z bilan berilgan murojaat birliklari o‘zbek tiliga tarjima qilinish jarayonida ba’zida ikki so‘z bilan, ba’zida esa uchta so‘z bilan ham berilish holatlari kuzatiladi. Bu holat har bir tilning o‘z xususiyatidan kelib chiqgan holda yuzaga keladi.

#### Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Ahmedova N.Sh. O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik konnotativ tadqiqi. Filol. fanlari nomzodi diss., Toshkent, 2008.
- (2). Begmatov E. Nomlar va odamlar. Toshkent, “Fan”, 1996.
- (3). Ким Г. О категории обращения в речевом этикете в корейском языке. 2004.
- (4). Usmonova Sh. Koreys va turkiy tillarda undalmalar. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Toshkent, “Universitet”, 2004.
- (5). Usmanova Sh. O‘zbek va koreys tillarida rasmiy murojaat shakllari. Lingvist. Ilmiy maqolalar to‘plami, III, Toshkent, 2012.
- (6). 이무영. 예절바른 우리 말 호칭. 서울 출판사. 2005.

**Mardonova Sitora Mardonovna (SamDCHTI, PhD)**

#### **QADIMGI INGLIZ TILIDA ISHLATILGAN “SİPIAN, SWENGAN, WEORPAN” FE’LLARI SEMANTIK TARAQQIYOTI**

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot qadimgi ingliz tilida ishlatalgan fe’llarning semantik rivojlanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Asosiy maqsad qadimgi ingliz tili davrida keng qo‘llanilgan fe’llarning lug‘aviy ma’nosiy va funksional o‘zgarishlarini aniqlashdir. Tadqiqot jarayonida tarixiy-lingvistik yondashuv asosida qadimgi ingliz tilidagi matnlar, masalan, “Beovulf” asarida ishlatalgan misollar va boshqa yozma manbalalar tahlil qilinadi. Ishning nazariy qismi semantik o‘zgarish turlarini, xususan, ma’no torayishi (narrow-wing), ma’no kengayishi (broadening), metaforik va metonimik o‘zgarishlarni tushuntiradi. Amaliy qismida esa qadimgi inglizcha fe’llarning bugungi ingliz tilida qanday rivojlanganligi, ayrim hollarda esa yo‘qolib ketganligi ko‘rsatiladi. Misol sifatida “sípian, swengan, weorpan” kabi asosiy fe’llar tahlil qilinadi. Tadqi-

<b>Radjabov Rashid Farxadovich</b>	Umumiy o‘rtta ta’lim maktablari o‘quvchilarini xalqaro reyting va indekslariga oid sinovlarga tayyorlash samaradorligini oshirish yo‘nalishlari	<b>93</b>
<b>Mamonov Abduzoxid Mannotovich</b>	Axborot madaniyatini oshirishda PISA tadqiqot usullaridan foydalanishning ilmiy-metodologik asoslari	<b>97</b>
<b>Sobirova Laylo Xudayberganovna</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish uslubiyati	<b>101</b>
<b>Ermatova Mexriniso Bekmuradovna</b>	Talabalarga milliy kashtachilikni o‘rgatish yo‘llari	<b>104</b>
<b>Kurbanov Munisbek Umirkovich, Matkarimov Azamat Farhod o‘g‘li</b>	Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda talabalarning estetik madaniyatini shakllantirish	<b>108</b>
<b>Nurmamotov Romazan Abdirashid o‘g‘li</b>	Raqamlı kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion ta’lim vositalari va ularni qo‘llash imkoniyatlari	<b>112</b>
<b>Valixanova Nigora Abdukaxxorovna</b>	Nizolarning ijobiy va salbiy funksiyalari	<b>115</b>
<b>Matnazarov Asadbek G‘ayratjon o‘g‘li</b>	Yosh futbolchilarda koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish va uning o‘yin jarayonida muvaffaqiyatga ta’siri	<b>118</b>
<b>Ummatkulova Charos Alijon qizi</b>	Chet tilini o‘qitishda talabalar og‘zaki nutq ko‘nikmlarini rivojlantirish: zamonaviy usullar va innovatsion yondashuvlar	<b>120</b>
<b>Esanova Sarvinoz Uktamovna</b>	Talabalarda xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	<b>124</b>
<b>Xasanova Xurshida</b>	Kimyo fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirishda refleksiyanidan foydalanishning ahamiyati	<b>127</b>
<b>G‘oyibnazarova Asal Baxtiyorovna</b>	Oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘qitishda multimedia texnologiyalari orqali ta’lim berish usullari	<b>130</b>
<b>Kalandarov Sardar Ibragimovich</b>	Tadbirkorlik ko‘nikmali – yoshlarni tarbiyalash asoslari	<b>133</b>
<b>Xaitov Azizbek Azamatovich</b>	Imom al-Buxoriy hadislari vositasida ma’rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari	<b>135</b>
<b>Турсунбаева Диёра Носировна</b>	Инновационные методы и технологии преподавания литературы в высших образовательных учреждениях	<b>138</b>
<b>Дадабаева Фарогат</b>	Инновационные методы обучения русскому языку	<b>142</b>
<b>Xojamuratova Gulimxon Saparbayevna</b>	Developing Students’ Social Skills in Foreign Language Instruction	<b>144</b>
<b>Atajanov Khajiboy Saburovich</b>	Intelligent E-Learning Platform: Design and Implementation for Self-Study in Programming and Digital Design	<b>147</b>
<b>Barnoyeva Nilufar Yoqubovna</b>	Methodological Functions of Corpus Linguistics in Teaching English	<b>153</b>
<b>Jamilova Nargiza Abdisalomovna</b>	Innovative Methods of Teaching German Language	<b>156</b>
<b>Rakhmanova Makhfuzा Saparaliyevna, Bekturdiyeva Sevara Umrbek qizi</b>	The Inclusion of Intercultural Communication in Teaching and Learning English Language	<b>159</b>

### **ILMIY AXBOROT**

<b>Berdambetova Aygul Paraxatovna</b>	Paremiologik tizimdagagi “intellekt” konseptining binar oppozitsiyalari	<b>163</b>
<b>Vohidova Nozima</b>	Xorijdagi o‘zbeklar muhitida milliy qadriyatlar mavzusining o‘rnini	<b>167</b>
<b>Qobilova Maxfuza Sherali qizi</b>	Mediadiskursning o‘ziga xos xususiyatlari	<b>171</b>
<b>Jabbarova Xabiba Kuvandikovna</b>	Gender tenglikning etnik madaniy xususiyatlari	<b>174</b>
<b>Uzoqova Sabohat Fazliddin qizi</b>	Yangi O‘zbekiston atrofida kechayotgan jarayonlarning Turkiya ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tahlili	<b>177</b>
<b>Isakov Zakirjon Soliyevich</b>	Yuklamalarning grammatik xususiyatlari	<b>182</b>
<b>Matyakubov Xakimboy Xamidjanovich</b>	O‘zbek va ingliz toponimik tizimini shakllantiruvchi asosiy omillar qiyosi	<b>185</b>
<b>Djumamuratov Kuanishbay Azatbay uli</b>	Ingлиз va qoraqalpoq tillarining rang komponentli frazeologik birliklarining semantikasida binar aksiologik tahlil	<b>187</b>
<b>Ashirbaeva Dilorom Ravshanovna</b>	Koreys va o‘zbek oila diskursida murojaat birliklarining gender xususiyati	<b>192</b>